

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**AHMADJONOVA OQILA ABDUMALIKOVNA**

**BADIIY ASAR PERSONAJLARI RUHIY VA JISMONIY HOLATLARI  
TASVIRINING O‘ZARO UYG‘UNLASHUVI  
(Asqad Muxtorning “Tug‘ilish” va “Chinor” romanlari misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Ahmadjonova Oqila Abdumalikovna**

Badiiy asar personajlari ruhiy va jismoniy holatlari tasvirining o‘zaro uyg‘unlashuvi (Asqad Muxtorning “Tug‘ilish” va “Chinor” romanlari misolida)...3

**Akhmadjonova Okila Abdumalikovna**

Mutual integration of characters' psychological and physical state in fiction (as examples of Askad Mukhtor's "Tug'ilish" and "Chinor" novels).....27

**Ахмаджанова Акила Абдумаликовна**

Синтез психологического и физического состояния персонажей художественного произведения (на примере романов «Тугилиш» («Рождение») и «Чинара» Аскада Мухтара)..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**AHMADJONOVA OQILA ABDUMALIKOVNA**

**BADIIY ASAR PERSONAJLARI RUHIY VA JISMONIY HOLATLARI  
TASVIRINING O‘ZARO UYG‘UNLASHUVI  
(Asqad Muxtorning “Tug‘ilish” va “Chinor” romanlari misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1736 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining www.fdu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Solijonov Yo'ldoshxo'ja,**  
filologiya fanlari doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna,**  
filologiya fanlari doktori, professor.

**Imomova Gulchehra Muhammadiyevna,**  
filologiya fanlari doktori, dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "22" avgust kuni soat 9<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks.: (873) 244-44-02; faks: (+993873) 244-44-01; e-mail: fardu\_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (287 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 1500151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "7" avgust kuni tarqatildi.  
(2023-yil "7" avgust da 19 raqamli reyeste bronnomasi)



**Sh. M. Iskandarova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., professor.

**M. T. Zokirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filol.f.n., professor.

**Z. B. Qobilova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor.

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida inson tafakkurining yangilanish jarayoni muhim omil sifatida baholanadi. Badiiy adabiyot soʻz va obrazlar vositasida omma ruhiyatini tubdan oʻzgartira olishi bilan sanʼat asarlari orasida oʻz qimmatiga ega. Ilm-fan taraqqiyotida badiiy psixologizmning tahlil etish usul va vositalarini chuqurroq oʻrganish inson maʼnaviyatida, jamiyat taraqqiyotida zarur ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor psixologiyasi, ijod jarayonidagi ruhiy evrilishlar, muallif tomonidan ilgari surilgan gʻoyalarning psixologik mohiyati, badiiy asar personajlarining ruhiy holatlarini, shuningdek, uning tashqi qiyofasida hamda jismoniy xatti-harakatlarini tasvirlash vositalari masalasi koʻp yillar davomida ilmiy izlanishlar obyekti sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asar personajlarining ruhiy va jismoniy holatlari tasviri orqali inson psixologiyasining turli murakkab qirralarini ishonarli ifodalash, bu jarayonni umumbashariy tahlil etish tamoyillarini yoritish shu kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida ham badiiy asarning estetik taʼsiri, yozuvchining inson ruhiyatiga yondashuvi masalalari dunyo ilmiy-nazariy tajribalari hamda milliy-maʼnaviy qadriyatlarimiz asosida olimlar tomonidan oʻrganilgan va bu yoʻnalishdagi tadqiqotlar izchil davom etmoqda. Bu esa ijod bilan bogʻliq ruhiy-psixologik holatlar, badiiy asar namunasining jamiyatga taʼsiri, oʻquvchining maʼnaviy kamolotidagi rolini falsafa, adabiyotshunoslik, psixologiya va sotsiologiya kabi fanlar hamkorligida oʻrganishga ehtiyoj tugʻdirmoqda. Zero, bugungi globallashuv davrida “...butun bashariyat oldida paydo boʻlayotgan, biz ilgari duch kelmagan gʻoyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yoʻlda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik gʻoyalar ruhida tarbiyalashda badiiy soʻz sanʼatining oʻrni va masʼuliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zurligini bugun hayotning oʻzi taqozo etmoqda”<sup>1</sup>. Badiiy ijoddagi davr ruhiyatining ijtimoiy-psixologik jihatdan tub mohiyatini anglash, inson ruhiy kechinmasi hamda xatti-harakatini oʻziga xos ijodiy uslub va obrazlarda ifodalanishini tahlil va tadqiq qilish, izchil oʻrganish tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmon va qarorlari, shuningdek, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot, sanʼat va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. “Oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik. – Toshkent, 2018. <https://www.xabaruz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat>

moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida psixologik tahlil, uning nazariy asoslari Z.Freyd, S.L.Rubinshteyn, E.Enneken, K.Yung, N.G.Chernishevskiy, A.A.Potebnya, V.G.Belinskiy, M.M.Baxtin, V.V.Vinogradov, M.B.Xrapchenko, V.E.Xalizev, N.D.Tamarchenko, A.B.Esin kabi xorijlik olimlarning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan<sup>2</sup>. O'zbek adabiyotshunosligida A.Alimuhammedov, M.Qo'shjonov, N.Shodiyev, H.Umurov, D.Quronov, T.Jo'rayev, Sh.Isayeva, Y.Solijonov, D.To'rayev, P.Kenjayeve, M.Boboxonov, R.To'laboyeva, Sh.Botirovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida psixologik va psixofiziologik<sup>3</sup> tahlil yuzasidan muayyan yozuvchilar ijodi asosida ilmiy xulosalar berilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup> Esin A.B. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988. – С. 176; Esin A.B. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта-Наука, 2002. – С. 248; Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989. – С. 447; Фрейд З. Введение в психоанализ. – М.: Наука, 1991. – 384 с.; Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – С. 594; Эннекен Э. История русского литературоведения. – М.: Высшая школа, 1980. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1210919>; Юнг К. Психологические типы. – Минск: Попурри, 1998.; Чернишевский Н.Г. Танланган педагогик асарлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – С. 614; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 502; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Художественная литература, 1972. – С. 506. <https://topuch.ru/problems-poetiki-dostoyevskogo/index/html>; Белинский В.Г. Собрание сочинений. Т. 3. – М., 1978. – С. 271; Белинский В.Г. ПСС в 13-томах. – М., 1953-1974 гг. Том 12, стр.375-376; Храпченко М.Б. Художественное творчество, действительность, человек. – М.: Сов.писатель. 1978. – С. 368; Храпченко М.Б. Лев Толстой как художник. – М.: Сов.писатель, 1963. – С. 662; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – С. 397; Аллан Пиз. Тана тили. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2016. – 195 б.

<sup>3</sup> Изох: Илмий-назарий тадқиқотларда психофизиологик таҳлил психологик таҳлилнинг динамик принципи, билвосита усул, новербал воситалар деб берилган.

<sup>4</sup> Алимухаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир // Ўзбек адабий танқиди: антология. – Тошкент: Турон-иқбол, 2011. – 543 б.; Қўшжонов М. Конфликт ва маҳорат // Шарқ юлдузи, 1962. – №3; Шодиев Н. Рухият рассоми. – Тошкент: Фан, 1977. – 48 б.; Шодиев Н. Қудратли тўлкинлар олами. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. – 160 б. Ҳ.Умuroв. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983. – 148 б.; Умuroв Ҳ. Бадий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 120 б.; Д.Қуронов. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ нашриёти. 2004. – 287 б.; Қуронов Д. Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романида характерлар психологизми: Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент. 1992; Т.Жўраев. Онг оқими ва тасвирийлик: Филол.фан.номз.... дисс. – Тошкент, 1994. – 130 б.; Ш.Исаева Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари: Филол.фан.номз.... дисс. – Тошкент, 2001. – 130 б.; Й.Солижонов ХХ асрнинг 80-90- йиллари ўзбек насрида бадий нукт поэтикаси: Филол.фан.д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 305 б.; Д.Тўраев Давр ва ижод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005; П.Кенжаева Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон рухиятини тасвирлаш тамойиллари: Филол. фанлари ном.... дисс. – Тошкент, 2008. – 104 б.; Бoboxonov M. Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм: Филол.фан. номз.... дисс.

Bevosita Asqad Muxtorning ijodiy merosi, xususan, roman, qissa, hikoyalari, badiiy publitsistikasi, she'riyati tahlili masalasi S.Mamajonov, M.Qo'shjonov, O.Tog'ayev, N.Vladimirova, M.Sultonova, O.Sharafiddinov, N.Xudoyberganov, U.Normatov, A.Rasulov, N.Rahimjonov, P.Shermuhammedov, B.Sayimov, A.Pantiyelev, U.Nosirov, T.Hamidov, S.Shirinov, I.Hasanov, M.German, M.Ibrohimov, Z.Kedrina, A.Ma'rufov, T.Sobirov, O.Sobirov, H.Yoqubov, B.G'ulomov, F.Nasriddinov, N.Rahmat, B.Akramov, A.Sabirdinov, U.Hamdammov, T.Shermurodov, A.Ergashev, S.Mo'minova, O.Jo'raboyev, M.Qo'chqorova, B.Hasanova<sup>5</sup>larning dissertatsiya, monografiya va maqolalarida uchraydi. Biroq Asqad Muxtor romanlarini yangi ilmiy-nazariy qarashlarga tayanib psixologik va psixofiziologik tasvir nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

---

– Тошкент, 2012. – 160 б.; Ҳозирги ўзбек романлари структурасида психологизм муаммоси: Филол.фан.док. ... дисс. – Самарканд, 2022. – 262 б.; Р.Тўлабоева Худойберди Тўхтабоев романларида психологизм: Филол.фан.бўйича фалс.д-ри, (PhD) ... дисс., – Тошкент, 2019; Ш.Ботирова Ҳозирги ўзбек романларида бадий психологизм (У.Ҳамдамнинг “Мувоzanат”, “Исён ва итоат”, “Сабо ва Самандар” романлари мисолида): Филол.фан.бўйича фалс.д-ри. (PhD)... дисс. – Қарши, 2019. –156 б.

<sup>5</sup>Мамажонов С. “Ҳаётга чакирик” хикоялар тўплами ҳақида // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1956. – №10. – Б. 114-117; Қўшжонов М. “Опа-сингиллар” романи ҳақида // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1956. – №5; Тоғаев О. Асқад Мухтор (адабий портрет). – Тошкент: “Тошкент” бадий адабиёт нашриёти, 1966. – 148 б; Тоғаев О. Адиблар ва жанрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – Б.303-351; Владимирова Н., Султонова М. Қахрамоннинг шаклланиши (А.Мухтор ва Ҳ.Ғулум прозаси материали асосида). – Тошкент: Фан, 1965. – 121 б; Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза // Ижоднинг катта йўлида – Тошкент, 1979. – Б. 390-424; Шарафиддинов О. Асқад Мухтор // XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 363-378; Худойберганаов Н. Кашфиётлар йўлида. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 71-119; Худойберганаов Н. Чўққилар чорлайди. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат, 1975. – Б. 111-116; Худойберганаов Н. Сўз курашга чорлайди. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат, 1978. – Б. 222-228; Норматов У. Ҳаёт ва адабиётдаги янгиликлар // Ўзбекистон маданияти. – 1961 йил 11 октябрь; Норматов У. Ёзувчи фалсафаси ва маҳорати // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1965. – №2; Норматов У. Қалбларга йўл топиб... // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1965. – №5; Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – Б. 3-56; Норматов У. XX аср куйчиси // Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 82-101; Расулов А. Танқидчилик уфқлари. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат, 1985. – Б. 13-135; Расулов А. Янги замон, янги қахрамон. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат, 1978. – Б. 3-64; Расулов А. Ўзбек совет прозасининг камоли. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – Б. 21-72; Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2003. – 72 б; Шермухаммедов П., Бегимкулов Д. Асқад Мухтор 60 ёшда. – Тошкент: Ёш гвардия, 1980. – 12 б; Сайимов Б. Асқад Мухтор прозаси. – Тошкент: Фан, 1969. – 198 б; Пантелев А. Материал ва бўёқлар. Ёзувчи Асқад Мухторга хатлар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1952. – №8; Насиров У. Язык и стиль романа Аскада Мухтара «Сестры»: Дисс. ... канд.филол. наук. – Самарканд, 1967; Ҳамидов Т. Поэтические мастерство Аскада Мухтара: Дисс. ... канд.филол. наук. – Бухара, 1969; Эргашев А.С. Ривоят ва унинг бадий асар сюжет композицион тузилишидаги поэтик ўрни (Асқад Мухторнинг “Чинор” ва О.Ёкубовнинг “Қўхна дунё” романлари асосида): Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Самарканд, 1993; Ширинов С. Образное изображение и индивидуальные стиль (по романам А.Мухтара) канд.филол. наук. – С.: 1974; Ҳасанов И.А. Реалистическое и романтическое в поэтике романов Аскада Мухтара: Дисс. ... канд.филол. наук. – Самарканд, 1985. – 171 с; Герман М. Ўзбек ёзувчиларининг асарлари чет тилларда // Ўзбекистон маданияти. – 1961 йил, 29 декабрь; Собиров О. Металлургия ҳақида повесть // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1956. – №12; Ёкубов Ҳ. Самарали ижодий изланиш // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1970. – № 9; Ғулумов Б. Бўронларда чиникқан дўстлик (“Қорақалпоқ кассаси” ҳақида) // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1960. – №7; Ғулумов Б. Қахрамон ва конфликт // Ўзбекистон маданияти. – 1964 йил 19 декабрь; Раҳмат Н. Асқад Мухтор дедилар. – Тошкент: Чўлпон, 2003. – 32 б.; Ҳамдам У. Асқад Мухтор шеърятига чизгилар // Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – 125-137 б.; Шермуродов Т. Ҳикоялар, ниҳоялар...// Жозиб изҳор излаб. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2009. – Б. 87-96; Сабирдинов А. Фалсафий ҳақиқатлар тажассуми // Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 24-32; Мўминова С. Асқад Мухторнинг фалсафий-интеллектуал лирикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 140 б; Жўрабоев О. Рухият қахрамонлари // Ёшлик. – Тошкент, 2003. – №5-6. – Б. 38-39; Қўчқорова М. Мархабо Қўчқорова муталаа қилади. Асқад Мухтор. Шеър шоир виждони, // Тафаккур, 2013. - №2. – Б. 76-81; Ҳасанова Б. Асқад Мухторнинг хикоянавислик маҳорати: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри. (PhD)... дисс., – Фарғона, 2018. –135 б.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida "Poetika muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Asqad Muxtorning "Tug'ilish" va "Chinor" romanlari misolida badiiy asar personajlarining ruhiy-psixologik holati hamda jismoniy xatti-harakatlari (psixofiziologik) tasvirining o'zaro uyg'unlashuvda namoyon bo'luvchi ijodkor mahoratini tadqiq etish muallifning o'ziga xos uslubini adabiyotshunoslikning shu kungi yangicha qarashlari, ilmiy mezonlari asosida aniqlash hamda ilmiy-nazariy jihatdan isbotlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

adabiyotshunoslikda psixologik tahlil prinsiplarini o'rganish, ruhiy holatlarni anglatuvchi ongli va ongsiz xatti-harakatlar zaminidagi ma'no mohiyatni turli tahlillar asosida dalillash;

psixologiya va tibbiyot sohasi chegarasidagi "psixofiziologiya" atamasi mohiyatining adabiyotshunoslik nazariyasiga doir tomonlari, ijodiy imkoniyatlarini amalda o'rganish, nazariy qarashlar asosida ilmiy tahlil qilish usullarini aniqlash;

yozuvchining har bir personaj psixologiyasi va psixofiziologik holatini ifodalashda badiiy nutq, remarka va replikadan foydalanish mahoratini tahlil etish;

"Tug'ilish" hamda "Chinor" romanlarida ayollar va turli obrazlar ruhiy dunyosini ifodalovchi psixologik vositalar o'rnini aniqlash;

yozuvchining obrazlar xarakterini yaratishda ruhiy tahlil usullaridan foydalanish imkoniyatlarini qiyosiy aspektida o'rganish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Asqad Muxtorning "Tug'ilish", "Chinor" romanlari tahlilga tortilgan.

**Tadqiqot predmetini** Asqad Muxtor ijodi misolida badiiy asarda ifodalanayotgan insonning psixologik (ichki) va psixofiziologik (tashqi) holatining mutanosibligi yoki nomutanosibligi sabablarini ilmiy jihatdan isbotlash tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda psixologik, qiyosiy-tipologik, struktural, germeneytik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

personaj ruhiyatini yoritish uchun qo'llanilgan psixologik va psixofiziologik holat tasvirlarining muayyan vazifalari Asqad Muxtorning "Tug'ilish" va "Chinor" romanlari misolida o'rganilib, muallifning nafaqat janriy va badiiy shakl, balki o'zbek nasrida psixologik tasvir muammosi borasida ham ijodiy muvaffaqiyatga erishganligi asoslangan;

muallif nutqi, personaj nutqi, dialog, monolog kabi nutq turlari va shakllarining badiiy tasvir orqali adib romanlari g'oyasi va mazmun mundarijasida namoyon bo'lishi, personajlarning o'zaro bir-birini kuzatib, dialog va ichki nutqi orqali munosabat bildirishi, muallifning kuchli ziddiyatli vaziyatlarda qahramonlarning ruhiy va jismoniy holatini uyg'unlashtirib tasvirlashdagi mahorati tahlillar asosida aniqlangan;

ijodkorning ayollar psixologiyasi, ruhiy dunyosini tasvirlashdagi o'ziga xos mahorati, shuningdek, kasb, lavozim, ma'lum mehnat jarayonlarini talqin etishda sohalar bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlardan samarali foydalanganligi, "Tug'ilish" va "Chinor" romanlarida ayollar psixologiyasini ochib berish uchun roman matnida ishlatilgan tinish belgilari ham psixofiziologik holat tasviri uchun xizmat qilganligi dalillangan;

davr taqozosiga ko'ra adib romanlaridagi siyosiy mafkura g'oyalariga tobe bo'lib qolgan inson obrazining ichki ma'naviy qiyofasi shakllanishidagi davr muammolarining parallel ravishda talqin etilishi va mamlakat iqtisodiyoti, ma'naviyatida sezilarli iz qoldirib ketgan totalitar tuzumning olib borgan ish uslubi, siyosatining oqibatida yuzaga kelgan tabiiy va sun'iy jarayonlar asosida ilgari surgan g'oyalari Asqad Muxtor kechaning emas, bugunning ham hozirjavob yozuvchisi ekanligi bilan isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

qahramon kasbi, portreti, voqealar drammatizmida psixologik va psixofiziologik vositalarning o'rni va rolini ko'rsatish yuzasidan nazariy xulosalar chiqarilgan;

psixologik tahlilda qahramon o'y-xayollari, mulohazalari yetakchilik qilsa, psixofiziologik tahlilda jest, mimika va xatti-harakatning ahamiyatli ekanligi dalillangan;

Asqad Muxtor romanlari tizimli ravishda o'rganilib, yozuvchining davr va qahramonga munosabati ijod psixologiyasi nuqtai nazaridan baholangan;

adibning o'zbek romanchiligi tarixida tutgan alohida o'rni, original badiiy izlanishlari analitik tahlillar asosida oydinlashtirilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, psixologik va funksional tahlil kabi usullar bilan asoslanganligi, ishonchli nazariy manbalar, lug'atlardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalaridagi ilmiy-nazariy xulosalar o'zbek adabiyotshunosligida badiiy asarni psixologik va psixofiziologik tahlil etish, badiiy mahorat yuzasidan mavjud ma'lumotlarni boyitishga xizmat qiladi. Dissertatsiyada ilgari surilgan g'oyalar adabiyotshunoslik yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar va metodologik asoslarni takomillashtiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati adabiyotshunoslik lug'atlaridagi mavjud sharh, izohlarga qo'shimchalar kiritish va takomillashtirishda, badiiy asar tahlilining tafakkur tadrijini ko'rsatishda qo'llanilishi bilan belgilanadi. Dissertatsiyaning asosiy nazariy xulosalaridan oliy o'quv yurtlari hamda litsey va kollejlar, o'rta maktablar uchun darslik va qo'llanmalar yaratishda, uslubiy tavsiyanomalar tuzishda, shuningdek, magistr va bakalavrlar uchun maxsus kurslar o'tishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Badiiy asar personajlari ruhiy va jismoniy holatlari tasvirining o'zaro uyg'unlashuvi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalaridan:

personaj ruhiyatini yoritish uchun qo'llanilgan psixologik va psixofiziologik holat tasvirlarining muayyan vazifalari Asqad Muxtorning "Tug'ilish" va "Chinor"

romanlari misolida o'rganilib, muallifning nafaqat janriy va badiiy shakl, balki o'zbek nasrida psixologik tasvir muammosi borasida ham ijodiy muvaffaqiyatga erishganligi bo'yicha xulosa va natijalardan 2017-2020 yillarda bajarilgan № OT-F-1 – 100 “Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy-madaniy faoliyatining badiiy ijodiyot vositalari asosida nazariy va amaliy takomillashuvi” fundamental loyihasida imkoniyati cheklangan yoshlarning badiiy-ijodkorligini rivojlantirish, ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, sog'lom estetik didni, insoniy tuyg'ularni shakllantirish maqsadida samarali foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2023 yil 13 yanvardagi 01-183-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy adabiyotning yosh avlod vakillariga adabiy-estetik ta'siri, badiiy tahlil qilish qobiliyatlarini o'stirishning yangi nazariy va amaliy asoslari yuzasidan tizimli tahlillarni amalga oshirish, xulosalar chiqarish imkoniyati yaratilgan;

muallif nutqi, personaj nutqi, dialog, monolog kabi nutq turlari va shakllarining badiiy tasvir orqali adib romanlari g'oyasi va mazmun mundarijasida namoyon bo'lishi, personajlarning o'zaro bir-birini kuzatib, dialog va ichki nutqi orqali munosabat bildirishi, muallifning kuchli ziddiyatli vaziyatlarda qahramonlarning ruhiy va jismoniy holatini uyg'unlashtirib tasvirlashdagi mahorati tahlillarining xulosa va natijalaridan F3-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi 2017-2020 yillarda bajarilgan fundamental loyiha doirasida ijodkor badiiy mahoratining o'rganilish muammolari yechimlarini topishda samarali foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpoq filialining 2023 yil 02 martdagi 105-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalaridan foydalanish fundamental loyiha doirasida tayyorlangan adabiy qahramonlar ruhiyati, turli ruhiy va jismoniy mutanosiblik tasvir vositalariga bag'ishlangan nazariy-metodologik tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

ijodkorning ayollar psixologiyasi, ruhiy dunyosini tasvirlashdagi o'ziga xos mahorati, shuningdek, kasb, lavozim, ma'lum mehnat jarayonlarini talqin etishda sohalar bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlardan samarali foydalanganligi, “Tug'ilish” va “Chinor” romanlarida ayollar psixologiyasini ochib berish uchun roman matnida ishlatilgan tinish belgilari ham psixofiziologik holat tasviri uchun xizmat qilganligi xulosalaridan “Jadid adabiyoti tarixi” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 25 dekabrda 538-son buyrug'iga asosan 538-283-raqamli ruxsatnomasi). Natijada badiiy psixologizm tasviri, ijodkor inson kontsepsiyasi, personajlar tasvirining ruhiy va jismoniy holatlari uyg'unlashuvining tahlil usullariga doir xulosalar ushbu ilmiy manba materiallarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitgan;

davr taqozosiga ko'ra adib romanlaridagi siyosiy mafkura g'oyalariga tobe bo'lib qolgan inson obrazining ichki ma'naviy qiyofasi shakllanishidagi davr muammolarining parallel ravishda talqin etilishi va mamlakat iqtisodiyoti, ma'naviyatida sezilarli iz qoldirib ketgan totalitar tuzumning olib borgan ish uslubi, siyosatining oqibatida yuzaga kelgan tabiiy va sun'iy jarayonlar asosida ilgari surgan g'oyalari Asqad Muxtor kechaning emas, bugunning ham hozirjavob

yozuvchisi ekanligi ilmiy-nazariy ma'lumotlaridan 2022 yilda "Ruxsor teleradiokanali" mas'uliyati cheklangan jamiyati tasarrufidagi "Ruxsor TV", "Gold UZ TV" telekanallari hamda "Ruxsor FM" radiosi eshittirishlarining "Men 30 yoshdaman", "Yonimizdagi odamlar", "Jannatmakon", "Kecha", "Fikrlar marafoni", "Mustaqillik shukronasi", "Faktlar", "Yashash baxti" kabi bir qator turkum dasturlar stsenariysini yozishda foydalanilgan ("Ruxsor teleradiokanali"ning 2023 yil 11 yanvardagi 9-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv va eshittirishlar saviyasini oshirishga, ruhiyat tasvirining estetik ta'sirini to'g'ri anglaydigan, jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlarga ongli munosabat bildira oladigan yoshlarni tarbiyalashga, xalqimizning boy ma'naviy-ruhiy dunyosi, badiiy-estetik tafakkur tarzini teran idrok etishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 3 ta xalqaro konferentsiyada aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Adabiyotshunoslikda psixologik va psixofiziologik tahlil tamoyillari**" deb nomlanadi. Bobning "**Ruhiy tahlil prinsiplari**" nomli birinchi faslida psixologik tahlil obrazlar mohiyatini, xarakterlar takomillashuvining nozik qirralarini, romandagi butun g'oyaviy mazmuni ochishda bosh vosita hisoblanishi, jahon va o'zbek adabiyotshunosligidagi badiiy asarga psixologik yondashuv masalalari, tahlil prinsiplari haqida olimlar ilgari surgan ilmiy-nazariy qarashlar o'rganilgan.

Badiiy adabiyotda ijtimoiy hayotning turfa xil ko'rinishlari so'z orqali obrazli aks etadi. Bu ijodiy jarayonda yozuvchi shaxsi, ijtimoiy-falsafiy qarashlari yetakchi o'rinni egallaydi. O'z fikrlarini ma'lum bir obraz vositasida ifoda etar ekan, uning individualligi uchun qayg'uradi, personaj ruhiy dunyosiga xos olam yaratadi, ular bilan suhbatlashadi, kulishadi, dardlashadi. Agar o'quvchi ham shunday

hissiyotlarni boshidan kechira olsa, badiiy asar originalligiga ishonadi. Badiiy asar ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri psixologizmdir.

Psixologik tahlilda "yozuvchi – matn – o'quvchi" muammosi turar ekan, badiiy asarni psixologik jihatdan o'rganishda psixologizm tabiatining murakkabligi hisobga olinadi. Uning qo'llanilish, tahlil etish jarayonlari etika-estetika, falsafa, tarix, psixologiya, fiziologiya va boshqa sohalar bilan o'zaro aloqadorlikda olib boriladi.

Keyingi davrlarda psixologik tahlil muammosiga bag'ishlangan qator ilmiy-tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Badiiy asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari, xarakter xususiyatlarini tahlil etish ko'plab tadqiqotlarda, yozuvchining uslubiy mahoratini tahlil qilish ma'nosida uchraydi. Ularning ba'zilaridagina psixologik tahlil prinsiplarining nazariy asoslari tadqiq etilgan. Bu masalada N.Shodiyev, H.Umurov, Y.Solijonovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida<sup>6</sup> ilgari surilgan fikrlar akademik M.B.Xrapchenko<sup>7</sup> nazariy qarashlari bilan umumiylik kasb etadi. Lekin adabiyotshunos H.Umurov uchala prinsipdan tipologik prinsipnigina psixologizm formasi ekanligini, psixologizmning har xil shakllarini (yo'nalishlarini) prinsip darajasiga ko'tarish noo'rin xulosalarga, chalkash fikrlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi<sup>8</sup>. Olimning fikricha, ba'zi asarlarda analitik va dinamik prinsiplar parallel yonma-yon kelgan holda yangi **sintetik prinsipni** kashf etadi<sup>9</sup>. Aynan bir voqelik drammatizmi talqin etilib, asar qahramonlaridan biri ruhiyatida qayta sintez etilishi shunday psixologik prinsip paralelligini vujudga keltirishi aytiladi.

Biz ham adabiyotshunos H.Umurov fikrlariga qo'shilgan holda M.Xrapchenko tasnifidagi psixologik tahlilning tipologik turini prinsip darajasida baholamaymiz. Chunki har qanday badiiy voqelik ijtimoiy muhitning tasviri bilan bayon etilar ekan, bunday asar ijtimoiy muhit ta'siridan holi emas. Ma'lumki, epik turning roman janri voqealar ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi. Romanda ijtimoiy muammo va yechimlar yozuvchi badiiy niyatiga qarab qisman yoki batafsil tasvirlanadi. Huddi shu jarayonda, analitik va dinamik prinsiplar bir-birini to'ldirgan holda sinkretik tarzda asarda ishtirok etadi. Xarakter yaratishda ijodkor analitik va dinamik prinsipning har ikkisidan ham o'z mahorat uslubi doirasida foydalanadi, faqat qaysidir birining tasviriy vositachiligi kengroq beriladi. Qahramon psixologiyasini uning his-tuyg'ulari, qarama-qarshi fikrlar oqimi, kechinmalar in'ikosi bo'lgan xatti-harakatlarda ifoda etadi. Biz psixologik tahlilning his-tuyg'ular tafsilotiga asoslangan analitik, ruhiy kechinmani xatti-harakatlar, jest, mimika orqali ifodalaydigan dinamik prinsiplari borligini ta'kidlaymiz va dinamik prinsipga xos xususiyatlar psixofiziologik tahlil asosida olib borilishi kerakligini taklif etamiz. Chunki psixofiziologik tahlil asar qahramonining faqat xatti-harakatlarinigina emas, tashqi tana tuzilishi bilan

<sup>6</sup> Умуров Х. Проблема психологизма и узбекский роман: Дисс....д-ра филол.наук. – Ташкент. 1983; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нукт поэтикаси: Филол.фан.д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2002.

<sup>7</sup>Храпченко М.Б. Художественное творчество, действительность, человек. – М.: Сов.писатель. 1978. – С. 368;

<sup>8</sup> Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983. – Б.26.

<sup>9</sup> Умуров Х. Бадий психологизм ва ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983. – Б.29.

mutanosibligi yoki nomutanosibligi tasvirini ham o‘z ichiga oladi. Qahramonning ichki mulohaza-o‘ylari, fikr-kechinma, ong osti tuyg‘ularining rivoji, tahlilda dinamiklik xususiyati mavjudligi atamalar tasnifida fikr chalkashliklariga olib kelishi ham mumkin. Bu mulohazalar ushbu prinsipni psixofiziologik tahlil atamasi bilan nomlashimiz mumkinligini ko‘rsatadi.

Bobning “**Psixofiziologik holat va uning talqini**” deb atalgan ikkinchi faslida psixologiya bilan tibbiyot sohasi chegarasidagi “psixofiziologiya” atamasi mohiyatining adabiyotshunoslik nazariyasiga doir tomonlari, ijodiy imkoniyatlarini amalda o‘rganish, nazariy qarashlar asosida ilmiy tahlil qilish usullari aniqlangan. “Psixofiziologik holat” tahlili shaxs ruhiyatidagi turli evrilishlarning yuzdagi, ko‘zdagi ifodasi, xatti-harakatlarda namoyon bo‘lishi haqida ilmiy-nazariy fikrlar tadqiqot ob‘yekti qilib olingan “Tug‘ilish”, “Chinor” romanlaridan olingan misollar asosida berilgan.

Ruhiy jarayonning tashqi belgilari deyarli barcha tadqiqotlarda psixologik tahlil tarkibida qorishiq tarzda beriladi. Bizningcha, xarakterlarni tasvirlashning *ong va ong osti bilan bog‘liq qahramonning ichki mulohaza-o‘ylari, ichki monolog, xotira, tush, assotsiasiyalar, tasavvur, ichki kechinmaga parallel berilgan peyzaj tasvirlari* bevosita **psixologik tahlil** doirasida o‘rganilsa, *tashqi tana bilan bog‘liq tasvir ob‘yektlari, turli ma‘nodagi ko‘z qarashlari, portret, ichki sezim, jest, mimika, muallif nutqi orqali remarkalarda berilgan personajning xatti-harakatlari* bilvosita **psixofiziologik** holat doirasiga kiradi, deb hisoblaymiz.

Psixofiziologiya fan sifatida XIX asrda psixologiya tarkibidan unib chiqqan bo‘lsa-da, qadimdan inson xatti-harakatlariga e‘tibor falsafa, tibbiyot, psixologiya va adabiyotshunoslik fanlarida o‘z aksini topdi.

Badiiy asarda qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari, gap-so‘zlari, yuz-ko‘z ifodalari, undagi fiziologik tuzilish va o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali ochib berilishi psixofiziologik tahlil (holat) mohiyatini tashkil etadi. Zero, “psixofiziologiya – psixik va fiziologik jarayonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fan sohasi bo‘lib, uning asosiy vazifasi psixofizik holatni ilmiy hal qilishdan iboratdir”<sup>10</sup>. Psixofiziologiya atamasi jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida alohida ilmiy atama sifatida e‘tirof etilmaydi. Bu atama o‘zbek adabiyotshunosligida Y.Solijonov<sup>11</sup>, D.Quronov<sup>12</sup>, A.Qayumov<sup>13</sup>larning ilmiy tadqiqot ishlarida “fiziologik o‘zgarishlar”, “psixofiziologik belgilar”, “psixofiziologik holat” atamasi sifatida uchraydi. Ular ushbu termini qahramonning ichki va tashqi ruhiy dialektikasining birligiga nisbatan talqin etadilar. Bu borada adabiyotshunos Y.Solijonov fikrlari e‘tiborlidir: “Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, badiiy asarda psixofiziologik holat yaratishning ahamiyati katta. Bunday holat shaxsning ichki tuyg‘usi bilan tashqi ko‘rinishi – jesti, mimikasi, jismoniy harakatining bir paytda yo mutanosib, yoki nomutanosib

<sup>10</sup> Тиббиёт энциклопедияси. – Т.: Шарқ, 2016. – Б.402.

<sup>11</sup> Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. – Б.141.

<sup>12</sup> Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.187.

<sup>13</sup> Қайумов А. Ҳозирги ўзбек насрида миллий характер ва бадий маҳорат (Ўткир Ҳошимов ва Наби Жалолдин хикоялари мисолида): Филол.фан.б-ча фалс.д-ри... дисс. – Фарғона, 2018. – Б. 102.

ravishda ifodalanishidir”<sup>14</sup>. Yaratilmishning ichki va tashqi ruhiyatini tasvirlash jarayonida bu murakkab holat ishonarli chiqishini ta’minlash uchun yozuvchidan katta bilim, tajriba va mahorat talab qilinadi. Psixologiya fani asosida tashkil topgan tibbiyot sohasiga tegishli bo’lgan ushbu atamani biz badiiy asardagi qahramonlar ichki kechinmasining, ruhiyatining tashqi ko’rinishida aks etishini tadqiq etish uchun qo’llashni tavsiya etamiz. Zero, qahramonlar ruhiy olami, jestidagi muloqot shaklini har bir yozuvchi va ijodkor o’z iqtidoridan kelib chiqib tasvirlaydi.

Badiiy asarda inson obrazi qanday xatti-harakat qilmasin, avvalo o’ylaydi, fikrlar natijasida harakatlanadi. Bu jarayonda ikki va undan ortiq shaxs nigohi, albatta, ishtirok etadi. Muallif nigohi qahramonni ko’rib, uni tavsiflansa, o’quvchi nigohi tasvirni jonli his etadi.

Harakatlar ikki sabab bilan vujudga kelishi mumkin:

1. Anglangan, ya’ni inson tashqi ta’sir natijasida vujudida bo’layotgan holatni his etib turadi. Bunday psixofiziologik holatlar qahramonning o’zigagina ma’lum holat bo’lib, inson ichki sezgi, tuyg’u-fikrlari asosida shakllanadi. Suhbatdoshiga, atrofdagilarga qahramon tanasida his etayotgan kechinma-tuyg’ular ayon bo’lmaydi;

2. Anglanmagan, ya’ni inson tashqi ta’sirga beixtiyor harakatlarini ong orqali nazorat qilmagan holda javob reaksiyasini namoyon etadi. Bunday psixofiziologik holatlar personajning tashqi ko’rinishida, xatti-harakatlarida namoyon bo’lib, u ham o’z ichida ikki holatga bo’linadi. **Birinchisi**, qahramonning doimiy shakllanib qolgan, faqat o’zigagina tegishli individual qiliqlari, odatlari bo’lib, ma’lum hayotiy ta’sir natijasida yuzaga chiqadi.

**Ikkinchisi**, tashqi ta’sir natijasida, inson o’zi anglamagan holda yuz berib, u deyarli barcha insonlarda kuzatiladi. Badiiy asar qahramoni kimningdir suhbatidan zavq olib kuladi, fikrlab o’ylanadi, jahli chiqib g’azablanadi. Suhbat jarayonida esa ta’sirlanadi. Bu fikrlarimizni dissertatsiyada A.Muxtorning “Tug’ilish” va “Chinor” romanlaridan olingan misollar bilan isbotlab berganmiz.

Ko’rinadiki, onglangan psixofiziologik holat tasvirida subyektning oniy lahzadagi kechinmasi qisqa, lo’nda aks etyapti. Ikkinchi holatda esa qahramon o’zi anglamagan holda, beixtiyor xatti-harakatlari jest va mimikani bajaradi. Onglanmagan psixofiziologik holatga tushgan Rahmonqulov bilan Pochchayevning o’zlari xatti-harakatlarini anglamagan tarzda namoyon qilyaptilar. Rahmonqulov boshini ro‘molcha bilan artganini, maqtovdan so‘ng shoshib qolganini, Pochchayev esa yuzidagi paylar tortishganini, qo‘llari qaltirayotganini o‘zlari sezmaydi.

Yozuvchining ana shunday mahorati badiiy asardagi obrazlarning ruhiyati va uning ifodasini ishonarli tasvirlashda yaqqol namoyon bo’ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Badiiy asar qahramonining ichki va tashqi holatini tasvirlash usullari**” deb nomlanadi. Uning ilk fasli “**Qahramon ichki dunyosini ochishda badiiy nutqning o‘rni**” tadqiqiga bag‘ishlanib, unda Asqad Muxtorning “Tug’ilish”, “Chinor” romanlari misolida ijodkorning inson

<sup>14</sup> Солижонов Й. Мўъжизалар сеҳри. – Т.: Адиб. 2013. – Б. 91.

ruhiy olamini inkishof etishdagi soʻz qoʻllash mahorati, nutq turlaridan samarali foydalana olishining oʻziga xosliklari tahlillar orqali yoritildi.

Jahon va oʻzbek adabiyotshunosligida badiiy nutq va uning tasnifi haqida turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi kungacha badiiy asar qahramoni ruhiyatini tasvirlashda badiiy nutq shakllarining ishtiroki, turli koʻrinishlari mavjud ekanligi taʼkidlab oʻtilgan. Albatta, qahramon ichki olamini ochib berishda badiiy nutq shakllarining har biri oʻziga xos oʻringa egadir.

Nutqning estetik vazifasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni oʻz ichiga olgan holda ularni umumlashtirish imkonini beradi. «Chinor» romani tilida yozuvchining soʻzga munosabati, soʻz tanlash va qoʻllashdagi oʻziga xosligi alohida koʻzga tashlanib turadi va aynan shu holat yozuvchining oʻziga xos uslubini namoyon qiladi. Asardagi har bir soʻz yaxlit obraz ichida yashaydi va badiiy maqsadga boʻysundirilib, muqarrar ravishda obrazlilik kasb etadi:

“Yoʻq ishga joylashgandan keyingi birinchi quvonchlar koʻp oʻtmay soʻndi. Akbarali yana boyagi-boyagiday ruhsiz, qutsiz, indamay kirib kelib, kiyimini ham yechmasdan karavotga oʻzini tashlaydi. Birpasdan keyin turib yana deraza oldiga boradi, stolda choyi sovib, onasi baʼzan oʻtirgan joyida mudrab qolganini ham sezmaydi.

Xayolida takrorlanaverib, **zanglagan mix** bilan oʻyib yozilgandek, xotirasiga oʻrnashib qolgan oʻsha sovuq kuz, oʻsha voqealar yana koʻz oʻngiga keladi, yolgʻiz qoldimi – kelib chirmashaveradi. Yolgʻizlik esa unga hamisha yoʻldosh. Koʻpchilik orasida ham, onasi bilan yonma-yon oʻtirganda ham u yolgʻiz. Xayolida oʻsha oʻylaridan boshqa hech narsa yoʻq. Oʻsha voqealarni kun-bakun oʻtkazib, oʻziga najot izlaydi. Topolmaydi...” (“Chinor”, 298-b.).

Adabiyotshunos munaqqidlarning fikricha, har qanday badiiy soʻz tildagi mavjud, omma tomonidan qoʻllanilgan soʻzdan oʻsib chiqadi, asarda tasvirlangan oddiy bir fakt u yoki bu darajadagi umumlashma qiyofa kasb etgani kabi soʻzning oddiy, toʻgʻri maʼnosi ham yangidan-yangi maʼnolar, oʻzgacha mazmunlar kasb etishi mumkin. Romandan olingan yuqoridagi parchada ishlatilgan bir qator soʻzlar asar kontekstida oʻz maʼnosidan tashqari koʻchma maʼnolar ham kasb etib, qahramon ruhiy holatini, cheksiz iztiroblarini yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi. Parchadagi **soʻndi**, **zanglagan mix**, **sovuq kuz**, **yolgʻiz**, **topolmaydi** kabi soʻzlar shular jumlasidandir. Maʼlumki, **soʻnmoq** soʻzining asl maʼnosi – oʻchmoq boʻlib, yonib, nur sohib turgan narsalarga nisbatan ishlatiladi, lekin bu oʻrinda u qahramon qalbidagi quvonch tuygʻularining alam, iztirob bilan almashinishi maʼnosida qoʻllanilgan. Shuningdek, bu soʻz Akbaralining kundan-kunga oʻylar iskanjasida qolib, qattiq iztirob chekayotgani uchun ham ruhan, ham jismonan kuchsizlanib borayotganiga ham ishora qilgan. Keyingi **zanglagan mix** birikmasi esa qahramon ruhiy holatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qilgan. Uning ishlatilishida muayyan maqsad borligi yaqqol koʻzga tashlanadi. Chunki **zanglagan mix** tufayli orttirilgan jarohatning bitishi qiyin, baʼzan esa oldi olinmasa, bitmay ogʻir asoratlarga, hattoki oʻlim holatigacha olib kelishi mumkin. Agar birikmaga shu nuqtai nazardan qaraladigan boʻlsa, yozuvchi bu oʻrinda nima

uchun aynan shu birikmani tanlagani yanada oydinlashadi. Bu soʻz birikmasi Akbaralining qismatiga – uning oʻzi orttirib olgan dardidan hech qachon qutula olmasligiga, taqdirining fojiali yakuniga ishora ekanligi maʼlum boʻladi. Adib **sovuq kuz** soʻz birikmasi orqali nafaqat oʻsha voqelik roʻy bergan vaqt, balki uning qanchalar mudhishligiga ham ishora qiladi.

“Chinor” romani til xususiyatlari haqida yana shuni alohida eʼtirof etish kerakki, unda Ochil buvaning avlodlari orqali turli ijtimoiy qatlam, turli millat va turli kasb – raykom sekretari, tergovchi, oʻqituvchi, baliqchi, kemachi, kema kapitani, matros, dehqon, olim, vrach, ishchi kabi koʻplab personajlar bilan tanishamiz. Besh qissaning har biri muayyan bir sohaga tegishli boʻlib, muallif shunday ijtimoiy sohalarida yetuk tajribasi bor insondek taassurot qoldiradi. Asosiy qahramonlar oʻz mavqei, kasbiga mos holda individual nutqlari bilan bir-biridan ajralib turadi. U har bir qahramon tilida oʻz kasbiga xos atamalar qoʻllaydi. Har bir personaj ijtimoiy muhit, kasb mahoratidan kelib chiqib soʻzlaydi. Bu esa obrazlarning oʻz xarakteri va qobiliyatini individuallashtirishini namoyon etadi.

Har bir yozuvchi oʻziga xos uslubiy mahoratidan kelib chiqib, qahramonlarining individualligini taʼminlashda muallif nutqi orqali turli psixofiziologik detallardan ham foydalanadi. “Tugʻilish” romanida koʻz tasviri, uning maʼnosi, oʻzgarishlari juda koʻp takrorlanadi. Masalan, hamisha ish jarayonidan qoniqmagan, mansabini yoʻqotishdan qoʻrqqan Rahmonqulov nigohlari xavotir va sinchkovlik bilan qaraydi. “Rahmonqulov “jiddiy gapiryaptimi?” deganday *xavotirli nazar* bilan zimdan qarab qoʻydi”, “Rahmonqulov unga *sinov nazari* bilan yana bir tikilib oldi”(“Tugʻilish”, 187-b.), “Boshliq bir oz shoshib qolib, uni *boshdan-oyoq koʻzdan kechirib chiqdi*” (“Tugʻilish”, 236-b.). Ushbu misollardan koʻrinadiki, Rahmonqulov atrofida talab bilan gapirsa-da, avvalo, uning oʻzi oʻziga, berayotgan buyruqlarining, olib borayotgan ishlarining toʻgʻriligiga ishonmaydi. Har bir harakatida qatʼiyat, magʻrurlik koʻrinib tursa-da, koʻz qarashlari doimo xavotirli, sinchkov boqadi. Chunki Rahmonqulovning oʻzi ham inson omiliga buyumday qarayotgani, his-tuygʻu, koʻngil, kayfiyat singari ruhiy jarayonlarni hisobga olmay, ishchilarga quldek munosabatda boʻlib ish yuritayotganini biladi. Lekin u ham majbur, siyosiy mafkura, partiya shuni talab etyapti. Bu ham yozuvchining davr kishisi sifatida anglab, anglatolmagan dardlarini qahramon harakatlariga, yuz, koʻz ifodasiga singdirish orqali oʻquvchi ongiga yetkazish uchun qoʻllagan ijodiy harakatlari samarasidir.

Asqad Muxtor asarlarida xarakterlarni individuallashtirishda nutq shakllarining barchasidan unumli foydalanadi. Har bir presonajning dunyoqarashi, bilim saviyasi, kayfiyati, axloqi, munosabati uning nutqi orqali ham oʻz ifodasini topadi.

Bobning ikkinchi fasli “**Remarka, replika, ichki nutq va qahramonning jismoniy holati**” deb nomlangan boʻlib, unda ijodkorning ruhiy kechinma tasviri talqinida muhim hisoblangan qahramonning ichki nutqi, dialog strukturasi asosi replika va remarkadan unumli foydalanish mahorati tadqiq etilgan.

Dialoglar kompozitsiyasidagi remarka va replika yozuvchining tasvirlash san'ati, soʻzdan foydalanish, obraz yaratishda, qahramon xarakterini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Remarka hikoyachi-muallif nutqiga tegishli boʻlsa, replika personajlar nutqi orqali suhbatdoshlar orasidagi oʻzaro munosabatlarda namoyon boʻladi.

Replika va remarka nasriy asar bayonida oʻz oʻrniga ega boʻlib, dialog tarkibida qatnashadi. Har ikkisi ham dialog strukturasi ajralmas ikki boʻlagidir. Y.Solijonov XX asr oʻzbek nasrida badiiy nutq muammolarini tadqiq etar ekan, “Hozirgi oʻzbek nasrida dialog strukturasi funksional doirasi va oʻziga xos uslubini tadqiq etishga kirishar ekanmiz, uning asar syujeti hamda kompozitsion qurilmasidagi qiyofasini remarka va replika ishtirokisiz toʻgʻri hal etib boʻlmasligini alohida taʼkidlash lozim boʻladi,”<sup>15</sup> deydi. Ayrim romanlarda remarkasiz dialoglar uchraydi, lekin dialogsiz roman boʻlmaganidek, replikasiz dialog boʻlmaydi. Personajlar muloqotini remarkasiz berish mumkinki, oʻquvchi muallif izohi boʻlmasa ham suhbatda ishtirok etayotgan qahramonning munosabati, javobi orqali uning fiziologik holatini, ruhiy kechinmasini tasavvur eta oladi. Dialoglarda remarka va replikadan foydalanish “dialog-replika”, “dialog-remarka” koʻrinishini vujudga keltiradi. Ular nisbatidan qay darajada foydalanish, voqealar dramatismini yaratish yozuvchining gʻoyaviy badiiy niyati, uslubi va mahoratiga bogʻliqdir. Asqad Muxtorning “Tugʻilish” romanida “dialog-replika” vaziyatlarini koʻproq kuzatsak, “Chinor” romanida “dialog-remarka” usulidan foydalanganligini koʻramiz.

Dialog tarkibida shaxslar ruhiy dunyosi, ayni vaqtdagi psixologik va psixofiziologik holatini yoritishda muallif nutqi vositasidagi remarkalar – koʻz qarashlari, yuzdagi oʻzgarishlar, ovozidagi ohang muhim ahamiyatga ega. Replikada qahramon xarakteri qirralari, ichki olami koʻrinsa, remarkada qahramonning yuz va tanadagi oʻzgarishlari, suhbat jarayoniga munosabati, undan taʼsirlanish darajasi, turli psixofiziologik holatlar hikoyachi-muallif orqali ifodalanadi. Har qanday nasriy asarda remarkalar orqali izoh berib borish holatining ikki turini kuzatishimiz mumkin:

1. Muallifning qahramonlarga nisbatan sof izohi.

“ – Nima qilay? – dedi sovuqqina qilib Humoxon patefon dastasidan qoʻlini olmay.

- Komissiyaga bordingizmi demoqchiman?

- Yoʻq.

- Humoxon, uni siz himoya qilmasangiz kim himoya qiladi? ... uning qanday pok odamligini taʼriflab bering.

- Menga nima! – dedi Humoxon, u *birdan oʻzgardi, boʻgʻiq ovozini koʻtara tushdi*. – Uni men ishdan olibmanmi, siz oldirgansiz, oʻzingiz himoya qiling! – *uning chiroyi yoʻqolib, afti xunuk boʻlib ketdi*. Koʻzlarini suzib kelib, mehmonni turgʻizib yubordi”. Ushbu dialogda Humoxonning “beparvo sovuqligi”, kayfiyatidagi “birdan oʻzgarish”, “boʻgʻiq ovozi”, “chiroyining yoʻqolib, afti

---

<sup>15</sup> Солижонов Ё. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фан. д-ри.... дисс. – Тошкент, 2002. – Б.139.

xunuk bo‘lib” ketishi singari psixofiziologik holatlar faqat muallifning izohi bilan beriladi.

1. Muallif izohi bilan suhbatdoshlardan birining ikkinchisiga nisbatan ong osti munosabati yondosh holda kelishidir.

“ – Men... Meni qurilish boshqarmasi yuborgan. O‘zboshimchalik qilishga haqqingiz yo‘q.

– Bizning uchastkaga, mening ixtiyoriga yuborgan, – dedi Bo‘riev uning yuzidagi o‘zgarishni kuzatib. **Tavba! Muncha oqardi!**” (“Tug‘ilish”, 112-b.). Ushbu misolda muallif nutqida Bo‘rievning Pochchayevni kuzatayotgani aytilsa, Pochchayevdagi ruhiy jarayon uning yuz ifodasida namoyon bo‘lishi personaj ichki nutqi orqali berilmoqda. Ushbu misolda qo‘llanilgan remarka ikkita qahramon Bo‘riev va Pochchayevlar harakterini ochib berishga xizmat qilgan. Bo‘rievdagi qo‘rqmaslik, bosim jarayoni kuzatilsa, Pochchayevning nutqi va psixofiziologiyasidan qo‘rqoqligi, bilimsizligi ko‘rinadi.

Qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashda dialog, personajlarning munosabatli ichki nutqi, muallif nutqi orqali ularning ruhiy tovlanishlarini jest va mimikalaridan, kulishi, xo‘rsinishi, tabassumi, qarashi, ovozi, harakati, biror joyini harakatga keltirishi orqali ifodalaydi. Masalan, Ochil buvaning soqolini tutamlab qo‘yishi uning suhbatga moyilligini bildirsa, Rahmonqulovning hadeb “yaltiroq boshi”ni artishi uning xayajonlanganidan darak beradi.

“Chinor” romanining Komila haqidagi qissasida ham nabirasidan xabar olgani, ikki nabirasini tanishtirish uchun uzoq yo‘lni bosib kelgan Ochil buvaning psixofiziologik holatini yoritishda muallif tasvirida remarkaning o‘rni beqiyosdir. Azimjonga nabirasi Amudaryo flotining kapitani Komilani g‘urur bilan tanishtirishga olib kelgan Ochil buva dastlab “darvozaxonada turib, hovli ichkarisiga ko‘z soldi” (“Chinor”, 194-b.). Hovlidagi sarishtalik, ekilgan ekinu shiftdagi qalampir shodalarini ko‘rib, uy egasidan ko‘ngli to‘ldi. G‘ururlandi, sababki, inson borgan joyining estetik holatiga qarab istiqomat qiluvchining turmush tarzi haqida o‘ziga xulosa chiqaradi. Ko‘rinadiki, oradan ancha yillar o‘tib yo‘qlab kelgan bobo nabirasining turmushi, hayoti haqida uning yashash joyini ko‘rib xulosa qilishga harakat qilgan, “uyatchangina” ko‘ringan kuyovi “pishiqqina” ekan, “nevara kuyovini eslab miyig‘ida kulib qo‘ydi” (“Chinor”, 195-b.). Buvaning bu xursandchiligi **ichki sezgi** tufayli tez so‘ndi. “Ammo biron tup gul ekmagan ekan, shunisi chakki bo‘libdi”, – deb o‘ylab qo‘ydi Ochil buva. Bu gap shunchaki xayoliga keldi-yu, zumdan keyin, shu o‘ydanmi bir narsani sezibmi, **ko‘ngliga g‘ashlik** cho‘kdi” (“Chinor”, 195-b.). Buvaning kayfiyatini buzgan mana shu xayolning o‘zi butun bir qissaga mantiqiy xulosa beradi. Go‘zallik yo‘q joyda chiroyli, tinch-totuv hayot ham bo‘lmaydi. Bu g‘ashlikni mehmonlarni ko‘rib **“beparvo qarab turgan”**, salomiga **“churq etib”** alik olmagan Anzirat xolaning qiyofasi ham tasdiqlaydi. Bundan anglashiladiki, Anzirat xola kimdandir qattiq xafa, xatto, uzoq yillar ko‘rmagan qudasining salomiga ham alik olgisi kelmaydi. Oraga tushgan sovuqlikni Azimjon ham payqagan, **“garangsigan”** edi. Xovliga nabirasini o‘ylab mag‘rur kirib kelgan buva asar davomida Anziratning shikoyatlaridan kayfiyati yo‘qolib, ruhan cho‘kib qolganini ko‘rishimiz mumkin.

Yozuvchi “dialog-remarka” orqali qahramon ma’naviy-ruhiy holatini, psixologiyasi asoslarini bevosita bosqichma-bosqich bir qancha xatti-harakatlarda, psixofiziologik holatlarda mohirona tasvirlab beradi:

1-bosqich: Ancha yillardan buyon ko‘rishmagan *Ochil buvaning, avvalo, qudasining so‘zlaridan ko‘ngli g‘ashlandi.*

2-bosqich: Komila haqida og‘ziga kelganini qaytarmay tinmay javrayotgan Anzirat xolaning gaplaridan Azimjonning oldida *xijolatga qolmaslik uchun evarasi bilan yengilgina so‘rashib qo‘ya qoldi.*

3-bosqich: Nabirasi buvisining gapini eshitib, *titrab ketganini ko‘rib achindi.*

4-bosqich: Ochil buva Komilaning ismi har safar Anzirat xolaning asabiga tegayotganini sezgani uchun, *beixtiyor ovozini pasaytirdi.*

5-bosqich: Komilaning qilmishlarini Anzirat xoladan eshitib, voqea sabablariga tushungan Ochil buvaga *nabirasining ismi “hozir o‘ziga ham xunuk eshitildi”.*

6-bosqich: Ishongan nabirasining ishi oqibatidan *boshini quyi solgancha, bo‘shashib o‘tirardi.*

7-bosqich: Buva hayotda juda ko‘p sinovlarni ko‘rgan, lekin *har qanday og‘ir vaziyatda ham o‘zini bunchalik yo‘qotmagandi.*

8-bosqich: Uning *miyasi karaxt, tili lol bo‘lib qoldi.*

9-bosqich: Buvaning *birdan bukchaygan yelkasi sapchib titrardi.* (“Chinor”, 198-b.)

Buvaning nabirasiga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirgan ruhiy jarayon bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan “**psixologik zamin, ruhiy holatni ochishda xatti-harakatlarning o‘rni va psixologik vaziyatlarning bevosita tasviri**”<sup>16</sup>da o‘z aksini topgan. Ko‘rinib turibdiki, Ochil buvaning ushbu qissadagi tasvirida psixologik tahlilning dinamik va analitik prinsiplari bir-birini to‘ldirgan holda voqealar dramatzimini kuchaytirgan. Psixofiziologik holatning eng yuqori kulminatsion bosqichi – kimsan Olim darg‘aning qizi bilan faxrlanib kirgan “Ochil buvaning birdan bukchaygan yelkasi sapchib titrardi” iboralari bo‘lib, bunda qahramonning fojeyi holati yorqin namoyon bo‘ladi.

Asqad Muxtor ushbu romanlarida har bir personajning ichki olamini tadqiq etishga alohida mas’uliyat bilan yondashadi. Xarakterlarni individuallashtirish va tipiklashtirib shakllantirishda ularning ruhiy olami bilan tashqi qiyofalarini muvofiqlashtirib boradi. Adib yaratgan qahramonlari mulohazakorligi (Ochil buva, Bo‘riyev, Orif) yoki aksincha, kaltabinligi (Rahmonqulov, Farmonov), jasurligi (Luqmoncha, Bektemir) va jur‘atsizligi (Akbarali, Sattor), ochko‘zligi, boylik uchun hech narsadan qaytmasligi (Xoldor, Samandarov) kabi xislatlarini o‘z individual nutqlarida, dialog va monologlarning turli xil ko‘rinishlarida namoyon etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Asqad Muxtorning “Tug‘ilish” va “Chinor” romanlarida obrazlar rang-barangligi**” deb nomlangan. Bobning “**Ayollar psixologiyasi va psixofiziologik holatining o‘ziga xosligi**” nomli birinchi faslida badiiy-estetik izlanishlar samarasi o‘laroq ayollar ruhiyatida

<sup>16</sup> Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, – Б 128.

kechadigan turli evrilishlar, ularni ijodkor tomonidan ifoda etish imkoniyatlari, ijtimoiy muammolar asosida ayolning qalbi, ongidagi turli hislar ritmikligining talqin etilishi haqida mulohazalar beriladi.

Asqad Muxtorning deyarli barcha nasriy asarlarida ayollar obrazi o'zining shijoati, faolligi, ijtimoiy hayotda o'z fikrlarini ochiq aytishi barobarida rahbarlik qobiliyatiga ham ega shaxslar ekanligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotimiz obyektiga bo'lgan "Tug'ilish" va "Chinor" romanlarida bir qancha ayol obrazlari borki, ularning ba'zilar ijtimoiy kelib chiqishi, hayotdagi o'rni va boshqa jihatlari bilan bir-biriga o'xshab ketadi. Masalan, "Tug'ilish" romanidagi Ulyana Barsova, "Chinor" romanidagi Mariya Vasilyevna obrazlarini olib ko'raylik. Ismlaridan ham ma'lumki, ikkisi ham boshqa millat vakilasi. Ularning hayot yo'llari ham bir xil. Fidokor, jonkuyar, halol, oilasi yo'q rahbar shaxslar. Lekin yozuvchi mehnat qilib charchamaydigan, hayot yo'lini vatan kelajagi uchun tikkan bu ikki ayol obrazi vositasida har bir shaxs, kech bo'lsa-da, qalbiga quloq solishini, har qanday insonning hayoti muhabbatsiz go'zal bo'la olmasligini ta'kidlaydi.

"Tug'ilish" romanida ayollar obrazi hayotdagi ijtimoiy o'rni, xarakteri jihatidan ancha rang-barangdir. Mazkur romanda ham bir necha ayol obrazlari bor. Ular qurilishga ishlashga borgan yosh qizlardan iborat. Yozuvchi asarda hech qanday bosh qahramonni ta'kidlab ko'rsatmaganidek, hech bir xotin-qizlar obrazini ham alohida ajratib bo'rttirib ko'rsatmaydi. Bir necha ayollar obrazi asarda birdek harakat qiladi, lekin har birining xarakteri, voqelikka munosabati, qalb kechinmasi, hayotdagi o'rni, fizionogmik belgilari, taqdiri turlichadir. Ularning har biri o'ziga xos jihati bilan o'quvchi ko'nglidan joy oladi. Bu obrazlar bo'rttirib ko'rsatilgan chiroyli ideal ham emas yoki kimgadir bo'ysunuvchan, mute ham emas. Ular real hayotda uchrab turadigan oriq, semiz, sariq, qoracha qizlardir. Har birining o'z mustaqil fikri va g'ururi bor.

"Chinor" romanidagi rivoyatlardan biri bo'lgan sevgi mulki – insonning eng xilvat mo'jizakor qalbi, ruhiyati haqida so'z yuritadi. Zero, K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek, "hech narsa – bizning so'zlarimiz ham, fikrlarimiz ham, hatto xatti-harakatlarimiz ham bizlarning o'z-o'zimizni, olamga bo'lgan munosabatimizni bizlarning his-tuyg'ularimiz singari yorqin va to'g'ri ifodalay olmaydi: ularda ayrim fikrning, ayrim qarorning xarakteri emas, balki ruhimizning butun mazmuni va uning tuzilishining xarakteri eshitilib turadi"<sup>17</sup>. Ushbu rivoyatda berilgan ramziy va majoziy obrazlar: ona, posbon, navqiron yigit, chumoli va atrofda gilarining "mehribonchiligi" tufayli sevgi mulki halokatga uchraydi. Ana shunday oshiyonning vayronaga aylanishi Komila qissasi bilan bog'lanadi, qissa orqali Asqad Muxtor ijtimoiy hayotdagi dolzarb mavzulardan biri – ayol qalbi his-tuyg'ularini mahorat bilan ifodalab berishga erishadi. Bu g'oyaviy niyatini adib **daryo, kema, bo'ron, to'lqin, shamol, chayqalish, behalovatlik** singari ramziy-majoziy unsurlar orqali ilgari suradi.

Asqad Muxtorning o'ziga xos kompozitsiyaga ega bo'lgan "Chinor" romanidan o'rin olgan "Komila" qissasi ("Chinor", 194-b.) qahramonlari taqdiri murakkabligi bilan o'quvchini o'yga toldiradi, turli baxslarga sabab bo'ladi. Ushbu

<sup>17</sup> Ушинский К.Д. Собрание сочинений, том 9. –М.: РСФСР ПФА.1950. – С. 117-118.

qissa qahramonlar ichki dunyosining chuqur tahlili va tadqiqi, ularning kechinmalari, o'y-fikrlari, mulohazalari, his etayotgan tuyg'u hamda sezgilarini mahoratli badiiy talqini bilan ajralib turadi. Jamiyatdagi axloq-odob, shariat qoidalariga ko'ra, ayol birovning nikohida, ikki farzandli ona bo'la turib, boshqa erkak bilan ketishi oilaga xiyonat, jiddiy jazoga loyiq hisoblanadi. Lekin, inson bu yorug' olamda o'z istak-xohishi bilan yashash huquqiga ega, o'z taqdirini o'zi hal qilishi mumkin, degan qarash ham bor. Xalqimiz tabiatiga singib ketgan islomiy tushunchalarga bu to'g'ri kelmaydi. Ayni vaqtda, adabiyot ham qalb ozodligi, erkini ulug'laydi. "Chinor" romanida Komilaning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari orqali yozuvchi ayolning jamiyatdagi, oiladagi, farzandlari oldidagi mas'uliyat hissidan tashqari, o'z qalb dunyosi ham borligini ta'kidlaydi. Asar davomida qahramon ma'naviy-ruhiy tadriji uning ba'zida keskin, ba'zida tushkun, lekin hamisha qat'iy irodali ruhiyati orqali tasvirlanadi.

Yozuvchi qissada Komila obrazi orqali ayol ichki kechinmasining o'ta murakkab vaziyatini badiiy talqin etadi. Ayol ruhiyati Komila hayotida ikkiga bo'linadi:

1. Komila 2 farzandning onasi, oilasi oldida mas'ul.
2. Qalbiga quloq solgan, ko'ngil quliga aylangan majnuna.

Asqad Muxtor ushbu qissada shunday dramatik vaziyatlarni yaratadiki, o'quvchi Komilaning oilasini tashlab ketishini qoralay olmaydi, lekin Komilaga xayrixoh ham bo'lolmaydi. Muhabbatga muhtalo kishi aql bovar qilmas ishlarni bajarishga qodir bo'ladi. Qissada yozuvchi tomonidan Komilaning majnunaga aylanish sabablari badiiy jihatdan asoslab berilgan. Ayol tabiatan go'zallikka intilib yashaydi va atrofidagilarning ham shu go'zallikni qadrlashlarini istaydi. Bu esa ayol tabiatining, xarakterining murakkab hodisot ekanligini ko'rsatadi.

Asqad Muxtor qalamiga mansub "Tug'ilish", "Chinor" romanlaridagi ayol obrazlari psixologiyasida oddiylik, soddalik, o'z kasbiga fidoiylik kabi xususiyatlar bilan birga, qalbiga quloq tutish va ko'ngil istagi bilan hayot kechirish kabi umumiy xususiyatlar ham mavjudligini ta'kidlash joiz. Yozuvchi ayollar psixologiyasini ochib berishda psixofiziologik holat tasvirlaridan mohirona foydalangan. Qahramonlarning xatti-harakatlaridan tashqari tinch belgilari ham psixofiziologik holat tasviri uchun xizmat qilganligi ijodkorning mahoratini belgilab beradi.

Uchinchi bobning **"Qahramonning yoshi, kasbi va mavqeiga xos psixofiziologik holat talqinlari"** deb atalgan ikkinchi faslida roman qahramonlarining turli ruhiy kechinmalari, psixofiziologik holatlarini yosh jihatdan ularning portret ko'rinishlari, voqelikka munosabati, kasbning inson hayotidagi o'rni, shakllanish jarayonlari, mavqei jihatdan turli psixologik xoslanishlari tahlil etilgan.

Har bir psixologik ifoda vositasining g'oyaviy-badiiy vazifalari haqida fikr yuritganda, portret adib ijodida ruhiyat tasvirining asosiy shakllaridan biri ekanligini ta'kidlash lozim. Yozuvchilar o'z asarlarida qahramonlar ruhiyatini, xarakterlarini ochishda ularning tashqi qiyofalari, ya'ni portretlarini chizishga alohida ahamiyat beradilar. Adib uchun portret chizish badiiy tasvir vositasi,

xarakterni, qalb dialektikasini ochish usulidir. Kitobxon asar qahramonining portreti orqali uning yoshi, gavda tuzilishi, jest va mimika kabi bir qator jihatlaridan xabardor bo'ladi. "Portretdagi har bir harakterli belgi, detal o'ziga xos funktsiyani bajaradi, o'zida muhim psixologik "yuk" tashiydi"<sup>18</sup>. Asqad Muxtorning "Chinor" va "Tug'ilish" romanlarida qahramonlarning ham ma'naviy, ham jismoniy qiyofasi dastlab muallif nutqi orqali chizilgan portretda namoyon bo'ladi.

"Chinor" romani kirish qismida Asqad Muxtor Ochil buva bilan Azimjon tasvirini berar ekan, ularni bir-biriga tashqi ko'rinishi orqali yosh jihatdan qiyoslab, ichki ruhiy olamini ham yonma-yon qo'yadi. Keksa inson va yigit tasviri bir vaqtda parallel berilar ekan, navqiron yigit tasviriga zid ravishda Ochil buva yoshi ulug', lekin Azimjon oldida tog'dek baquvvat kishi sifatida tasvirlanadi. Qiyiqlar qadimiy navqiron kuchni ardoqlash bilan birga, shu yurtning g'am-qayg'usi, shodligu quvonchlarini birdek baham ko'rgan ming yillik baquvvat chinor kabi chuqur ildiz otgan xalq vakilini ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Ayni vaqtda, personaj libosi ham uning qaysi millat vakili ekani, yozuvchining ma'lum ijodiy niyati haqida so'zlaydi. **Beqasam to'n, chust do'ppi, yaktak** va **qiyiqlar** ham bu ikki personajning o'zbek halqiga mansubligini ko'rsatadi.

"Tug'ilish" romani kommunistik mafkura avjiga chiqqan paytda yozilgan, ammo Asqad Muxtor kombinat qurilishi – mehnat tasviri, jamoa madhi asosida yosh avlodning o'zligini topishga, har bir shaxsning o'z dunyosi, o'z olami borligini his etishga, insoniy qadr-qimmatini anglab yetishgacha bo'lgan hayotning katta-kichik muammolarini bayon etadi. Bu muammolar oldida har kimning asl qiyofasi, asl xarakteri shakllanadi, namoyon bo'ladi. Turmush tajribasiga ega bo'lgan yoshi katta insonlar shoshmasdan, o'ylab munosabat bildiradilar. Yoshlar voqelikka qiziqsa, xayrat bilan yondashadi, agar qiziqmasa, e'tibor bermaydi, o'rta yosh vakillari esa aniq va keskin qaror berishga moyil bo'ladi.

Inson hayotda topgan o'rni – kasbi orqali ham farqlanadi. Kasb nuqtai nazaridan ham xatti-harakatlardagi psixofiziologik jarayonlar o'ziga xos bo'ladi. Badiiy asarda kasbga bog'liq psixofiziologik holatni yaratish yozuvchidan katta e'tibor talab qiladi. Buning uchun, avvalambor, ijodkor tasvir etayotgan kasbini yaxshi bilishi, shu kasbiy faoliyat orqali harakatlantirayotgan qahramonini mehnat jarayonida ichki tuyg'usi bilan tashqi ko'rinishini, undagi hislar oqimini mutanosib ravishda ifodalashi kerak.

"Tug'ilish" romanida ikki rahbar shaxs bor, ikkisininingda ishchilarga – inson omiliga munosabati har xil. Biri insonlarga ishchi kuchi sifatida qaraydigan, qurilishni o'z muddatida bitirishni o'ylab hatto o'zini ham ayamaydigan, bu yo'lda ming bir xil tovlanishga ham tayyor qurilish rahbari – Subhonqul Rahmonqulov bo'lsa, ikkinchisi ishchilar dardini eshita oladigan, ularning ma'naviy dunyosi bilan muntazam qiziqqan uchastka rahbari Elchibek Bo'riyevdir. E'tibor berilsa, Elchibek Bo'riyevning lavozimi Rahmonqulovnikidan past, lekin ishchilar orasida Bo'riyevning obro'si balandroq ko'rinadi.

---

<sup>18</sup> Курбанов Т. Одил Ёкубовнинг портрет яратиш маҳорати: Филол.фан. номз... дисс. – Т., 1997.– Б.142.

O‘zining fikridan boshqasini to‘g‘ri deb tan olmaydigan, qurilish boshqarmasi boshlig‘i Subhonqul Rahmonqulov “uch burchak qalpog‘i gardanida osilib turgan brezent plashch, eski qora furajka kiygan, **pakanaroqqina** kishi. **Yoshi qaytib qolgan** bo‘lsa ham, harakatchan, **ko‘z qarashlaridan bir so‘zini ikki qildirmaydigan**, tadbirli ko‘rinadi”gan odam. Ushbu ta‘rifdan uning qat‘iyatli, aqlli shaxs deb o‘ylashimiz mumkin, lekin jiddiyroq e‘tibor berilsa yozuvchi uning sifatlarini sanagan holda “**ko‘rinadi**” iborasini qo‘llaydi: “Bir so‘zini ikki qildirmaydigan” – qo‘l ostidagilardan e‘tirozsiz buyruqlarini bajarilishini talab qiladigan rahbar shaxs ekanligini anglashimiz mumkin. Asar davomidagi voqealar uning o‘z “men”ini yuqori qo‘ygan, ishning oxirini o‘ylamay mantiqsiz, buyruqbozlik asosida yelib-yugurishini ko‘rsatadi. Rahmonqulovning jamoa bilan tanishuvidagi bu kabi psixofiziologik holatlardan uning shuhratga o‘ch ekanligi, atrofda gilarni mensimasligi namoyon bo‘ladi. Lekin unda yana bir xislat bor ediki, suhbatdoshini ohanrabodek o‘ziga jalb eta olardi.

Psixologiyaning ilmiy-nazariy qarashlarida suhbatning jonli va qiziqarli chiqishida mimikaning o‘rni katta. Suhbatdoshida yaxshi va do‘stona taassurot qoldirishni xohlagan inson jilmayib turishi kerak. Rahmonqulov bu imkoniyatdan unumli foydalana olardi. “Yoqimli jilmaygancha, hammaga bir-bir qarab chiqdi. U boshi taqir, salqi yuzli g‘o‘labirroq kishi edi. Rahmonqulov yuzida yoqimli tabassum bo‘lsa-da, ammo sovet rahbarlariga xos gapirdi” (“Tug‘ilish”, 17-b.).

Asarni o‘qish davomida Rahmonqulov psixofiziologiyasiga xos bo‘lgan soxta tabassumi, e‘tiborli ko‘rinishi niqob ekani, o‘zini do‘st, hamdard qilib ko‘rsatsa-da, shafqatsiz qarorlaridan qaytmasligini namoyon etadi. Rahmonqulovning xarakter-psixologiyasi, uning psixofiziologik holatlari Bo‘riyev bilan bo‘lgan ziddiyatlarda yanayam aniqroq ko‘rinadi.

Ana shunday kasbi, yoshi va yana bir qancha guruhlar kesimida ta‘riflanadigan insonlarning, xarakteri, har bir individning o‘ziga xos ruhiyati, uning munosabatida jest, mimika, fiziognomik xususiyatlar doirasidagi tana tilini badiiy adabiyot to‘la ifodalab berishga qodir so‘z san‘atidir. Asqad Muxtor “Chinor” romanida ma‘naviy qiyofasi to‘la shakllangan, jamiyatda ham o‘z o‘rnini topgan qahramonlar yaratsa, “Tug‘ilish” romanida hayotda o‘rnini topishga intilayotgan, kasb-kor egallashga harakat qilayotgan bir qancha yoshlar haqida mulohaza yuritadi.

## XULOSA

1. Bugunga qadar jahon adabiyotshunosligida psixologik tahlil masalasi yuzasidan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Nazariy ma‘lumotlar psixologik tahlilning analitik va dinamik prinsiplari bor. Biz tadqiq qilayotgan psixofiziologik tasvir usuli dinamik prinsipning bivosita aks ettirish shaklidir.

2. Mukammal, yetuk badiiy asar yozuvchi dunyoqarashining betakror aksidir. Shu nuqtai nazardan “Tug‘ilish” va “Chinor” romanlarida tasvirlangan psixologik holatlar tahlili orqali asarning badiiy-estetik qimmatini, ijodkorning o‘ziga xos individual ijodiy qiyofasini anglab olish mumkin. “Chinor” romanining ko‘pchilik adabiyotshunoslar tomonidan talqin etilgan va e‘tirofqa sazovor bo‘lgan o‘zigagina

xos badiiyati Asqad Muxtorning benazir uslub egasi ekanini yana bir karra isbotlaydi.

3. Asqad Muxtor o'z ijodida psixologik tahlil vositalaridan biri badiiy portretlardan unumli foydalangan. Ramziylik orqali xalq portretini, obrazlar portreti tarkibidagi o'xshatish, qiyoslash, kontrast qo'yish orqali xarakterlarning ichki va tashqi olamining mutanosibligi yoki aksincha tasvir usuli bilan xarakterlar tabiiyligiga erishgan.

4. Badiiy asarda gavdalanayotgan xarakterlar bilan u mansub bo'lgan muhit, sharoit o'rtasida yoki shu sharoitda yashayotgan kishilar o'rtasida qarama-qarshiliklar kelib chiqsa, qahramon ruhiyatida o'zgarishlar paydo bo'ladi. Yozuvchi tomonidan yaratilgan xarakterlarning qarama-qarshiliklari oqibatida mukammal inson vujudga keladi. Asqad Muxtorning "Chinor" romanida Ochil buva xakteri ko'p voqea-hodisalar muhitida sayqal topib boradi. Har bir qissadan keyin keluvchi hikoyatlarda buva va uning oilasiga taalluqli voqeliklar psixologik tasvir usullaridan biri – xotira tarzida esga olinadi.

5. Asqad Muxtorning "Chinor" va "Tug'ilish" romanlarining markazida xalq, uning ruhiyati, orzusi, mehnati va kurashi turadi. Kurash davomida har bir qahramon xakteri asta-sekin takomillashib boradi. Ijodkor qahramonlarning psixologik, psixofiziologik holatlarini ifodalashda turli nutq shakllari, dialog strukturasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan replika va remarkalardan unumli foydalanganligi isbotlandi.

6. Muallif nafaqat janriy va badiiy shakl, balki o'zbek nasrida psixologik va psixofiziologik holat tahlili muammosi borasida ham ijodiy muvaffaqiyatga erishgan. "Tug'ilish" asarida yetakchi qahramonlar ruhiyatining tadqiqidan tashqari, omma-xalq psixologiyasi ham talqin etilgan. Bu o'zbek nasrida XX asrning 70-yillarida vujudga kelgan o'ziga xos yangilik edi.

7. Ijodkor psixologiyasi shunday jarayonki, u faqat o'z zamonasidagina yashab qolmaydi. Xalq dardi, davr siyosati, ruhiyatini to'g'ri anglagan holda, kelajakni ko'ra biladi. O'z orzu-istaklari, ma'lum "bashorat"larini asar qahramonlarining maqsad sari intilishlari, mulohazalari orqali roman g'oyasiga singdirib yuboradi.

8. Asqad Muxtor qahramonlarning his-tuyg'ulari, irodasi, ma'naviy qiyofasini qaltis vaziyatlarda sinovdan o'tkazadi. Buning uchun shartli ravishda badiiy makondan unumli foydalanadi. Jumladan, yer osti konida Akbarali, kessonda Luqmoncha, daryoda Komila kabi obrazlar orqali yozuvchi hayot va o'lim orasidagi inson ruhiyatini chuqur tahlil etadi, ularning ichki dunyosini badiiy taftish etadi.

9. Muallif "Chinor" romanining asosiy qahramoni Ochil buva psixologiyasini uning o'y-xayollari, xotirasi orqali bersa, buvaga xos bo'lgan psixofiziologik xususiyatlarni, asosan, muallif nutqi, remarkalar orqali ifodalaydi. "Tug'ilish" romanida esa qahramonlarning psixologik va psixofiziologik holatlari kuchli ziddiyatli vaziyatlar, dialog va personajlarning bir-birini kuzatishi va ichki nutqi orqali munosabat bildirishida namoyon bo'ladi.

10. Asqad Muxtor kechaning emas, bugunning ham hozirjavob yozuvchisidir. U asarlarida ilgari surgan g'oyalar, yaratgan qahramonlar o'zining ma'naviy-axloqiy yetukligi, yangiligi bilan bugun ham yashab kelmoqda, ertaga ham yashaydi.



**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT FERGHANA STATE UNIVERSITY**

---

**FERGHANA STATE UNIVERSITY**

**AKHMADJONOVA OKILA ABDUMALIKOVNA**

**MUTUAL INTEGRATION OF CHARACTERS' PSYCHOLOGICAL  
AND PHYSICAL STATE IN FICTION  
(as examples of Askad Mukhtor's "Tug'ilish" and "Chinor" novels)**

**10.00.02 – Uzbek literature**

**DISSERTATION ABSTRACT FOR THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN  
PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Ferghana – 2023**

The theme of PhD dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission under the number B2021.2.PhD/Fil1736.

The dissertation has been prepared in Fergana State University.

The abstract of the PhD dissertation is posted in three (Uzbek, English and Russian (Resume)) languages on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and on the website «ZiyoNet» Information-educational portal (www.ziynet.uz)

**Scientific consultant:**

**Solijonov Yuldoshkhuja,**  
doctor of philological sciences, professor.

**Official Opponents:**

**Tojiboyeva Mukaddas Abdurakhimovna**  
doctor of philological sciences, professor

**Imomova Gulchekhra Muxammadiyevna**  
doctor of philological sciences, docent

**Leading organization:**

**Namangan state university**

Defense of the Dissertation will take place on «22» 08 2023, at 9<sup>00</sup> p.m. at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University (Address:105, Marginoniy Street, Ferghana, 100151. Tel: (99873) 244-66-02; fax: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz.

Dissertation could be reviewed information-resource center of Ferghana State University (registration number 287). Address: 19. Murabbiylar Street, Ferghana, 100151, Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertation abstract sent out on «7» 08 2023.  
(Mailing report number 19 08 2023).



**Sh.M.Iskandarova**  
Chairman of Scientific Council Awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, professor

**M.T.Zokirov**  
Secretary of Scientific Council Awarding scientific degree, Candidate of Philological sciences, professor

**Z.B.Kobilova**  
Chairman of Scientific Seminar at the Scientific Council Awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, professor.

## **INTRODUCTION (abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD))**

**The actuality and significance of the dissertation work.** In the world literary studies, the process of renewal of human thinking is evaluated as an important factor. Fiction has its value among works of art as it can fundamentally change the public psyche through words and images. In the development of science, a deeper study of the methods and means of analysis of artistic psychology acquires a necessary importance in human spirituality and the development of society.

In the world literary studies, the psychology of the creator, the psychological essence of the ideas put forward by the author, the mental world of the hero of the work of art, the study of the unique evolutions in it, as well as the issue of image tools have been studied and researched by scientists as an object of scientific research for many years. Research of the psychological and psychophysiological conditions of the heroes of the literary work, and the clarification of the universal principles of analysis are relevant in modern literary studies.

In Uzbek literary studies, the issues of the aesthetic impact of the artistic work, the writer's approach to the human psyche have been organized by scientists on the basis of world scientific-theoretical experiences and our national-spiritual values, and research in this direction continues consistently. This creates the need to study the mental and psychological conditions related to creativity, the influence of the artistic work on the society, the role of the reader in the mental and spiritual development in collaboration with such sciences as philosophy, literary studies, psychology and sociology. After all, in today's era of globalization "...eliminating the most complicated problems and global dangers which are appearing in front of the whole people, we have not faced before jointly, on this way in the process of uniting all good-intentioned people, bringing up young generation who make up about a third of the world's population in the spirit of humanistic ideals, today's life demands that the role and responsibility of art and music in education should be increased more than ever. Realization of the socio-psychological essence of the spirit of the period in artistic creation, analyzing and researching the expression of human spiritual experience and behavior in unique creative styles and images, consistent study determines the relevance and necessity of the research work.

This research serves specifically in the accomplishment of Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PD-6097 of October 29, 2020 "On approval of the concept of development of science until 2030", PD-60 of January 28, 2022 "On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026" and decisions, as well as PD-2789 dated February 17, 2017 "On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific and research activities", PD-3775 dated June 5, 2018 "In higher education institutions decision on additional measures to increase the quality of education and ensure their active participation in comprehensive reforms

implemented in the country" and the tasks appointed in other normative-legal documents.

**The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies.** The research was carried out in accordance with the priority direction of the republican science and technology development «Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and ways of their implementation».

**The scope of study of the problem.** Psychological analysis in the world literature, its theoretical foundations have been studied in the works by the foreign scientists as Z. Freud, S. L. Rubinstein, E. Enneken, K. Jung, N. G. Chernishevsky, A. A. Potebnya, V. G. Belinsky, M. M. Bakhtin, V. V. Vinogradov, M. B. Khrapchenko, V. E. Khalizev, N. D. Tamarchenko, A. B. Esin<sup>19</sup>. In Uzbek literary studies, A. Alimhammedov, M. Koshjanov, N. Shodiev, H. Umurov, D. Kuronov, T. Jo'raev, Sh. Isaeva, Y. Solijonov, D. Toraev, P. Kenjaeva, M. Boboxonov, R. Tolaboeva, Sh. Botirova's research works have given scientific conclusions on psychological and psychophysiological<sup>20</sup> analysis based on the works of certain writer<sup>21</sup>. The issue of the direct analysis of Asqad Mukhtar's creative heritage, in

---

<sup>19</sup>Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. –М.: Просвещение, 1988.– С. 176; Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта-Наука, 2002. – С. 248; Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989. – С. 447; Фрейд З. Введение в психоанализ. – М.: Наука, 1991. –384 с.; Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – С. 594; Эннекен Э. История русского литературоведения. – М.: Высшая школа, 1980. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1210919>; Юнг К. Психологические типы. – Минск: Попурри, 1998.; Чернишевский Н.Г. Танланган педагогик асарлар. –Т., Ўқитувчи, 1989 й.; Потebня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – С 614; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 502; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Художественная литература, 1972. – 506 с. <https://topuch.ru/problemi-poetiki-dostoyevskogo/index/html>; Белинский В.Г. Собрание сочинений. Т. 3. – М., 1978. – С. 271; Белинский В.Г. ПСС в 13-томах. – М., 1953-1974 гг. Том 12, стр-375-376; Храпченко М.Б. Художественное творчество, действительность, человек. – М.: Сов.писатель. 1978. –С. 368; Храпченко М.Б. Лев Толстой как художник. – М.: Сов.писатель, 1963. – С. 662; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – С. 397; Аллан Пиз. Тана тили. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2016. – 195 б.

<sup>20</sup>Изох: Илмий-назарий тадқиқотларда психофизиологик таҳлил психологик таҳлилнинг динамик принципи, билвосита усул, новербал воситалар деб берилган.

